

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

SEHRLI ERTAKLARDA G'AYRIODDIY TUG'ILISH MOTIVINING O'ZIGA XOS TURLARI VA ULANING TAHLILI

<https://orcid.org/>: 0009-0004-1557-3669

Abdullayeva Xurshida Ne'matjonovna

Andijon davlat universiteti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek hamda ingliz sehrli ertaklarining g'ayrioddii tug'ilish motivlarini qiyosiy, tipologik, kulturalagik va koprativistik tahlil qilingan. G'ayrioddii tug'ilishning o'z talqinlariga qarab olti xil turi ko'rib chiqildi va tahlil yuzasidan natijalarga erishildi. Ikki xalq sehrli ertaklarining bu motivi juda keng motiv ekanligi va u epik asarga o'zgacha joziba taqdim qilinishi aniqlandi. Ushbu maqolada yana g'aroyib tug'ilishning o'ziga xos turlari ko'rib chiqiladi. Birinchi turi bo'l mish "tilla kokil bilan tug'ilish" "o'zbek xalq ertagi asosida ko'rib chiqilgan bo'lsa, ikkinchi turi bo'l mish" barmoqdek kichkina "iste'mol qiluvchi narsalarni, Tabiat xodisalari natijasida, Biror jonivordan tug'ilish, G'aroyib xislat bilan tug'ilish kabi turlari ko'rib chiqildi. Shunga asosan o'zbek hamda ingliz sehrli ertaklarining sehrli ertaklari talqinida tahlil qilinib kerakli xulosalar chiqarildi. Xulosalar natijasi ingliz va o'zbek ertaklarining mushtaraklik va bir hillik taraflarini aniqlashga yorda berildi. O'zbek sehrli ertaklari o'zining estetik badiiyati hamda o'zining ideal sehrli syujetga ega ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Koprativistik, kulturalagik, totem, fetish, qiyosiy tahlil, g'ayrioddii, qo'lsiz honim, Qor bola.

АНАЛИЗ КОНКРЕТНЫХ ТИПОВ МОТИВА НЕОБЫЧНОГО РОЖДЕНИЯ В ВОЛШЕБНЫХ СКАЗКАХ И ИХ СВЯЗЬ

Абдуллаева Хуришида Нематжоновна

Андижанский государственный университет Докторант первого курса

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный, типологический, культурологический и копративистский анализ необычных мотивов рождения узбекских и английских волшебных сказок. Шесть различных типов аномальных родов были рассмотрены в соответствии со своими интерпретациями и получены результаты анализа. Выяснилось, что этот мотив волшебных сказаний двух народов является очень широким мотивом и придает эпическому произведению особый шарм. Первый тип, «рождение с золотой плесенью», считался на основе узбекской народной сказки, а второй тип, «маленький, как палец», рождался в результате природных явлений, от животного. дефекты были учтены. На основе этого проанализированы узбекские и английские волшебные сказки и сделаны необходимые выводы. Результаты выводов помогли определить общность и однородность английских и узбекских сказок. Узбекские волшебные сказки имеют свое эстетическое художественность и свой идеал. было обнаружено, что у него есть магический сюжет.

Ключевые слова: Копративистский, культурный, тотем, фетиши, сравнительный анализ, необычный, безрукая дама, Снежный мальчик.

ANALYSIS OF SPECIFIC TYPES OF THE MOTIF OF UNUSUAL BIRTH IN MAGICAL TALES AND THEIR CONNECTION

Khurshida Abdullayeva Nematjonovna

Andijan State University First year doctoral student

Abstract. This article provides a comparative, typological, cultural and coprativist analysis of the unusual motives for the birth of Uzbek and English fairy tales. Six different types of abnormal births were reviewed according to their interpretations and analysis results were obtained. It turned out that this motif of the magical tales of two peoples is a very broad motif and gives the epic work a special charm. The first type, "born with golden mold," was believed to be based on an Uzbek folk tale, and the second type, "small as a finger," was born as a result of natural phenomena, from an animal. defects have been taken

into account. Based on this, Uzbek and English fairy tales were analyzed and the necessary conclusions were drawn. The results of the conclusions helped to determine the commonality and homogeneity of English and Uzbek fairy tales. Uzbek fairy tales have their own aesthetic artistry and their own ideal. it was discovered to have a magical plot.

Key words: Coprativistic, cultural, totem, fetish, comparative analysis, unusual, armless lady, Snow boy.

Kirish. Jahon xalqlari ertaklaridagi umumiyl o‘xshashlik haqida fikr borganida, ko‘proq sehrli ertaklar nazarda tutiladi. Qadimdagи fantastik voqealar totem, fetish obrazlardan uchar gilamlarga, sehrli dasturxonlarga, oltin qaynaydigan xumlarga, istagan odamni istagan paytda ko‘rish mumkin bo‘lgan jomlarga, oynalarga o‘tgan. Sehrli ertaklardagi voqeа-hodisalar haqiqiy ma’noda ajdodlarimiz orzu-havaslarining majmuasiga aylangan. Sehrli ertaklar jozibasi, ko‘pincha, asardan o‘rin olgan mo‘jizaviy safarlar hayratomuz to‘kinlik aks etgan lavhalar, xayol bovar qilmaydigan jodu va afsonaviy uchrashuvlar tasvirida o‘z ifodasini topadi. Ertaklarda hayat shu qadar mazmunli va bebaho ehsонki, unda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan hodisalar tizimining o‘zi yo‘q, yechimi topilmas muammo uchramaydi, degan xalq falsafasi nafas oladi.

Metodologiyasi. Bu maqolada o‘zbek va ingliz sehrli ertaklarida gayrioddij tug‘ilish motivlarining qiyosiy mushtarak va o‘ziga xos jihatlarini aniqladi. Bu esa ikki xalqning adabiyotlararo umumiyl nazariy qonuniyatlarning yuzaga kelishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil metodikasi aytib o‘tilgan harakatlardan tashqari, yana tahlil obyektlarining tashkil etuvchilarini ham bir-biri bilan qiyoslashga qaratiladi. Qiyosiy tahlildan maqsad – qiyoslanuvchi obyektlarning o‘xhash va farqli jihatlarini aniqlash, ular orasidagi umumiyl qonuniyatlarni yuzaga chiqarishdan iborat. Azaldan, «Haqiqat qiyosda bilinadi» deymiz. Shuning uchun ham qiyoslash metodologiyasi xalq og‘zaki ijodidagi ertaklar qiyosiy tahlilida keng tarqalgan va qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda qiyoslash metodi barcha bilish va hodisalarni tahlil etish jarayoniga tatbiq etilgan. Fan va amaliyotning barcha sohalarida qiyoslash metodologiyasidan foydalaniлади. Shunday ekan ushbu maqola ham qiyoslash medodikasiga qo‘l uradi.

Ingliz va o‘zbek sehrli ertaklarida g‘aroyib motivi ikki til ertaklari orasida qiyosiy metodologik tarzda tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Sehrli ertaklarining yana bir o‘ziga hos sirli motivlaridan biri, ertaklarda ayollar gayrioddij farzand dunyoga keltirishidir.

1. Tilla kokil bilan tug‘ilish. Masalan, “Tilla kokil bola” yoki “Oltin bola” ertaklari bunga misol bo‘la oladi. Bunda qahramon o‘ziga xos sehrli kuch quvvatga va qobilyatga ega bo‘ladi a uni albatta vatan himoyasi, ezgulikka sarf qiladi.

2.Barmoqdek kichkina. Ba’zan ularning bollari barmoqdek kichkina tug‘iladilar(Thumbling tales da bo‘lgani kabi).Bu qahramonlar o‘ziga xos xislatlari hamda talantli bo‘lib kopincha e’zgulik vaadolat uchun kurash olib boradilar.

3.Iste’mol qiluvchi narsalar. Ba’zan shunday epik asarlar ham uchrashi mumkinki unda ayollar taomlar, iste’mol qiluvchi narsalarni ham farzand sifatida dunyoga keltirishlari mumkin. Masalan, Oshqovoq qiz (Pumkin girl)[1.1] , ba’zan esa bodring yoki mango bo‘lgan bola ham ko‘radilar. Ingliz ertaklarida g‘ayri tabiiy bola tug‘ilishidaona och qolishi va birorta mevani yoki sabzavotni yeb shu tufayli g‘aroyib bola tug‘ish motivi juda ko‘p uchrab turadi. Bunga misol qilib Qirol Lindworm etagini olishimiz mumkin(Prince Lindworm ATU433B).[2.2] Qirolicha ikkita archilgan piyoz po‘chog’ini och qolganligi tufayli yeb qo‘yadi so‘ngra bir ajdaho o‘g’il (a dragon son) ko‘radi. Sehrli ertakdagи onalar o‘z farzandlarini xalqdan qutqarish uchun juda ehtiyyot bo‘lganlar chunki tug‘ilgan farzandlarni turli hil hayvonlarga o‘rniga qo‘yib onani ayblash ham epik asarning motivlarida tez-tez uchraydigan hodisa. Qo‘lsiz honim bunga yetarli misol bo‘la oladi. (Armless Meiden) (ATU da 706 ertak sifatida yozilgan Girl without a hand).[3.1]

4. Tabiat xodisalari natijasida ham g‘aroyib tug‘ilish kuzatilish mumkin.

Qor Bola (the Snow child) Terra Stolida Vallona degan degan joyda bir boy dehqon yashar ekan uning kata bir fermasi bor ekan. Fermasida qora mollari bo‘lib ularni ba’zan mamalakat tashqarisiga ,yaylovlarga olib ketar ekan.U yerda oylab qolib ketar ekan.

Uning ayoli uyda qolar ekan . Ayoli to;ladan kelgan qoracha yuzi dumaloq go‘zal edi . U ayolga shaharning bir Lordi oshiq bo‘lib qoladi, Ular birga aylanib yurishadi. Ayol esa birdan qorni ishib

homilador bo'lib qoladi. Qahratton qish fasli edi. Ayol farzand ko'radi va farzand qordek Oppoq bo'lganligi uchun unga oppoq deb ism beradi. Safarga ketgan eri birdan keadi va bolani so'raydi. Xotin qattiq qor yog'ganini va osha payt shu voqea bo'lganini aytib beradi. Eri yana safarga chiqib ketib Oq (White) bolani ham olib ketadi. Yolda issiq tushib bola erib ketadi. Xotin buni eshitib juda hafa bo'lib eri bilan ajrashadilar.

5. Biror jonivordan tug'ilish. Bu motiv ingliz xalq ertagi "Fish of Gold" – "Oltin baliq"da uchraydi. U Norton to'plamida John Smis tomonidan 1924-yil 9 aprelda yozib olinganligi uning kundaligida ko'rsatilgan [4.234]. U Tomson qayd etgan ATU375 motiviga o'xshaydi.

Etakda aytishicha, bir kambag'al chol ayoli bilan bir kulbada yashar ekan. Bir kuni chol baliq to'rida bir oltin baliqni topib olibdi va u baliq choldan qo'yib yuborishini yolvorib so'rabdi. Evaziga uyini qasrga aylantirishini hamda sehrli dasturhon berishni va'da qilibdi. Chol rozi bo'lib, baliqni qo'yib yuboribdi. Baliq cholni bu boylikni qayerdan olganini hech kimga aytmasligini tayinlabdi, aks holda hamma narsa yo'q bo'lib ketishi mumkinligini aytibdi. Baliqchi uyiga qaytib, ayolini qimmatli sarpolarda, uy to'ridagi sehrli dasturxonda hamma narsa tayyor turganini ko'ribdi. Lekin kampir buncha boylikni qayerdan olganligini so'rab, aytishga majbur qilib turib olgan ekan. Chol aytib beribdi, o'sha zahoti hamma oltin baliq bergen narsalar yo'q bo'lib ketibdi. Chol yana baliqning oldiga boribdi va hamma narsani qaytib olmoqchi bo'libdi. Yana baliqni tutib olibdi va boylikni olib, yana qo'yib yuboribdi. Shunday qilib, uchinchi martasida baliq noiloj cholga uni uchga bo'lishini va bittasini o'ziga, bittasini xotiniga va bir bo'lagini bog'iga ko'mishini buyuribdi. Vaqt kelib ayoli tilla bola tug'ibdi, chol dengizga borish uchun unga tilla toy kelibdi, bog'da esa tilla nilufar gul o'sib chiqibdi. Tillaga bola ulg'ayibdi va baxtini toppish uchun tilla otni minib, tillaga gul ochilsa, chol uning bargini asrab qo'ysa, yigitni asrab turadi deb kelishib, yo'lga chiqibdi. Yo'lda yigit bitta katta o'rmonga duch kelishibdi. O'rmonda o'g'rilar bilan ayovsiz kurashibdi. Biroz vaqtdan keyin yigit bir qizni uchratibdi, u qiz malika ekan. Yigit qizni qattiq sevib qolib, u bilan turmush quribdilar. Malika yigitni o'z qasriga olib ketibdi. Malikaning otasi qirolning juda jahli chiqibdi va yigitni o'ldirmoqchi bo'libdi, lekin malika uni qutqarib olibdi. Bir kuni qiro qigitning oltin bola ekanligini bilib qolibdi va o'rmonga kiyik tutib kelgani jo'natibdi. Yigit kiyikni tutay deganda, bir jodugar chiqib, yigitni toshga aylantirib qo'yibdi. O'sha kuni oltin gul bargi yerga tushibdi. Yigitning otasi yaproqni cho'ntagiga solib, o'z otiga minib, sehrli kuchga gul tufayli ega bo'lib, yigitga yordam bergani yo'l olibdi. Jodugarni o'ldiribdi va malikaning oldiga qaytib, baliqchi ayoli – hammasi qasrsa birga yashabdilar.

O'zbek xalq ertagi "Ayiropolvon"da ayiq va insondan tug'ilgan bola obrazni keltirilgan. Yana O'zbek xalq ertaklari fantastikasida "Oyjamol" [5.24] ertagida malika bo'ridan farzand ko'radi va bu bola o'ziga xos kuch qudratga ega kuchli, yengilmas baxodir bo'lib ulg'ayadi, yirtqich mahluqdan tug'ilishiga qaramay qalbi toz malikani hamda xalqni yovuz Devlardan xalos etadi.

6. G'aroyib xislat bilan tug'ilish. O'zbek xalqining "Kulsa – gul, yig'lasa – dur" [6.1] ertagi qahramoni bunga yorqin misol bo'la oladi. Unga xos g'aroyib xislat ingliz xalq ertaklari qahramonida kuzatilmadi. Ushbu ertakda aytishicha, bir chol bilan kampir bo'lgan ekan. Chol daladan o'tin terib kelib, uni sotib tirikchilik qilar ekan. Chol bilan kampirning farzandlari yo'q ekan. Kunlardan bir kuni chol daladan o'tin olib kelayotganda, unga Xizr yo'liqib, bolasi bor-yo'qligini so'rabdi. Xizr cholning bolasi yo'qligini eshitib, unga bir qizil olma beribdi va bu olmaning yarmini o'zi, yarmini xotini eyishini buyuribdi.

Shundan so'ng cholning xotini qiz tug'ibdi. Qiz yig'lasa, ko'zidan gavhar to'kilarkan, agar kulta, og'zidan ochilgan gul tusharkan, yursa oyog'i tagidan tilla sochilarkan. Ammo Xizr qiz katta bo'lgandan keyin ozor chekishini aytibdi.

Xizr aytgandek, qiz yig'laganida ko'zidan gavhar to'kilibdi. Uch oylik bo'lganidan keyin kulta, og'zidan ochilgan gul ham to'kilibdi. Shu gavharlarni, shu gullarni otasi bozorga olib borib sotib, uylar qurib olibdi.

Qiz o'n besh yoshga kirganda Buxoro podshosining o'g'lidan sovchi chiqibdi. Unga otasi ancha vaqtgacha bermay yuribdi. Podsho zo'rlik qilib olmoqchi bo'libdi. O'tinchi oxiri qizini shahzodaga berishga majbur bo'libdi. Lekin "Bermas qizning qalini ko'p" deganday, chol qizining qaliniga yuzta sigir, yuzta tuya, ikki yuzta ot va ming tilladan iborat ko'p narsa so'rabdi. Sovchilar rozi bo'libdi va so'ralgan narsalarni olib kelibdilar. Podsho bir aravada ikki erkak, yana bir aravada ikki ayol yuboribdi. Ular bilan ikkita otliq ham bor ekan. Qiz bilan birga boradigan odam yo'q ekan. Ikkinchisi aravadagi ikki ayolga qizni qo'shib jo'natibdilar. Qiz va uni olib ketayotganlar yarim yo'lga yetganda bir quduq yonida to'xtabdilar. Aravadan tushib dam olibdilar, qiz suv ichmoqchi bo'libdi. Ikki ayolning biri qiz ekan. Yonidagi onasi

ekan. Xotin erkaklarni nariroqqa yuborib, “kelin qochmasin” deb, o‘zi va qizi kelin bilan birga qolibdi. Shunda suv ichib, non emoqchi bo‘libdilar. Qiz xotindan non va suv so‘rasa, u evaziga qizning ko‘zlarini so‘rabdi. Qizning qorni ochqagani uchun rozi bo‘libdi. Oxirida xotin qizning qimmatbaho kiyimlarini yechib olib, o‘z qiziga kiygizibdi. Keyin kelining o‘rniga qizini aravaga o‘tqazibdi, kelinni esa quduqqa itarib yuboribdi. Keyin ular yo‘lga tushib ketibdi. Podshoning uyiga ikki chaqirim qolganda, podsho bir otliqni yuborib: “Kelinni kelgan joyida aravadan tushirib, piyoda olib keling. Oyog‘idan sochilgan tillani lashkarlar terib kelsin”, – debdi. Yasovullar podshoning aytganicha kelinni piyoda olib kelibdilar. Lekin uning oyog‘idan hech qanday tilla sochilmabdi. Podsho buni bilib juda ham xafa bo‘libdi. Kuyov uygakirib, kelinni kuldirsa, og‘zidan gul ham sochilmabdi, yig‘latib ko‘rsa, ko‘zidan gavhar ham tushmabdi. Kuyov bu haqda otasiga aytibdi.

Bir kambag‘al yo‘lovchi quduq yonidan o‘tayotib, qiziq hodisaga duch kelibdi. Quduq o‘rnida gavhar supa paydo bo‘libdi. Quduqqa tashlab ketilgan qizning ko‘zidan to‘kilgan gavhar bilan quduq to‘lib, uning ustida ko‘zi o‘yilgan bir chiroyli qiz o‘tirgan emish. Yo‘lovchi chol hayron bo‘lib, qizning holini so‘rabdi. Qiz boshidan o‘tganlarni aytib beribdi. Ikkisi ota-bola tutinibdi. Qiz choldan to‘kilgan ko‘z gavharlaridan shu erga bir bino soldirishini so‘rabdi. Chol bir paxsasini oltindan, bir paxsasini kumushdan qilib bir bino solibdi. Chol qizni qo‘yarda-qo‘ymay uyiga olib ketibdi. Qiz bir necha oy cholning uyida yurgandan keyin, bir kuni kulibdi, uning og‘zidan ochilgan gul tushibdi. Qiz shu gulni choldan podshoning darvozasiga olib borib sotishini, gulning bahosi ikki o‘yilgan ko‘z ekanini aytibdi. Buni eshitgan podshoning kelini onasidan so‘ramay qutida turgan ikki ko‘zni berib, gulni olibdi. Haligi chol sevinib ko‘zlarni olib ketibdi. Olib borib qiziga beribdi. Qiz to‘liq sog‘aygach, yigit qirq kecha-qirq kunduz to‘y-tomosha berib qizga uylanibdi. Kampir bilan uning qizini otning dumiga bog‘lab, qirq chaqirim uzoqlikdagi changalzorga haydab yuboribdi.

Xulosa. Shunday qilib, sehrli ertaklarda g‘ayriodiy tug‘ilish mativi qadimiy tarixga borib taqaladi. Ularda bu motivlar ikki xalqning o‘z hayat tarzi, etimologiyasi, yashash sharoiti, makon hamda zamonga qarab shakllanadi va badiiy va adabiy hodisaga aylanadi. G‘ayriodiy tug‘ilish motivi o‘zbek va ingliz sehrli ertaklarining yorqin spesifikasi bo‘lib, ular epik syujetlarning daomiyligini, barqarorologini, tilsim hodisalarga boyligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar

<https://sites.pitt.edu/~dash/type1362.html#north> England, Thomas North)

<http://www.story-lovers.com/storygarden.html#pumpkinchild>

https://www.compassion.com/charitable-gift-catalog.htm?referer=514582&utm_source=xmpie&utm_medium=email&utm_campaign=gc_email1_mass_2017

A dictionary of British fairy tales.1894 Norton collection <http://www.mftd.org/index.php?action=atu>” Yonar Daryo” O‘zbek xalq fantastikasi ,Yosh gvardiya nashriyoti.1986 [24-151]

”Kulsa gul-yig’lasa dur”. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/kulsa-gul-yig-lasa-dur>